

QASHQADARYO VILOYATIDA ICHIMLIK SUVI BILAN KASALLIKLAR

Xujamova S.B - *Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*
Absattarov E.G' - *Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida ichimlik suvi sifati va u bilan bog'liq kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilinadi. Hududdagi suv manbalarining gigiyenik holati, mikrobiologik va kimyoviy ifloslanish darajasi hamda ular keltirib chiqaradigan ichak infeksiyalari, gepatit A va boshqa suv orqali yuqadigan kasalliklarning tarqalish xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ichimlik suvi xavfsizligini ta'minlash, sanitariya-gigiyena choralari kuchaytirish va profilaktik tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: ichimlik suvi, suv sifati, suv orqali yuqadigan kasalliklar, ichak infeksiyalari, gepatit A, mikrobiologik ifloslanish, sanitariya-gigiyena, epidemiologiya, profilaktika.

ЗАБОЛЕВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ В КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ

Хужамова С.Б. – преподаватель Шахрисабзского государственного
педагогического института

Абсаттаров Е.Г. – студент Шахрисабзского государственного
педагогического института. Узбекистан

Аннотация: *В данной статье на научной основе анализируется взаимосвязь между качеством питьевой воды и связанными с ним заболеваниями в Кашкадарьинской области. Изучены гигиеническое состояние источников воды в регионе, уровень микробиологического и химического загрязнения, а также особенности распространения кишечных инфекций, гепатита А и других вызываемых ими заболеваний, передающихся через воду. Также предложены меры по обеспечению безопасности питьевой воды, усилению санитарно-гигиенических мер и совершенствованию профилактических мероприятий.*

Ключевые слова: *питьевая вода, качество воды, заболевания, передающиеся через воду, кишечные инфекции, гепатит А, микробиологическое загрязнение, санитарно-гигиенические меры, эпидемиология, профилактика.*

DISEASES RELATED TO DRINKING WATER IN KASHKADARYA REGION

Khuzhamova S.B - teacher of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Absattarov E.G' - student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute.

Uzbekistan

Abstract: *This article analyzes the relationship between drinking water quality and related diseases in the Kashkadarya region on a scientific basis. The hygienic condition of water sources in the region, the level of microbiological and chemical pollution, and the characteristics of the spread of intestinal infections, hepatitis A and other waterborne diseases caused by them are studied. Also, proposals are made to ensure the safety of drinking water, strengthen sanitary and hygienic measures, and improve preventive measures.*

Keywords: *drinking water, water quality, waterborne diseases, intestinal infections, hepatitis A, microbiological pollution, sanitary and hygienic, epidemiology, prevention.*

Ekologik sharoitlar sog'liqni saqlashning bevosita tarkibiy qismi bo'lib, ularning yomonligi kasalliklarning avj olishiga sabab bo'ladi. Qashqadaryoda G'uzor, Muborak, Dehqonobod tumanlarida ekologik holat va sanitariya infratuzilmasining past darajada ekani bu hududlardagi aholi salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ichimlik suvi sifati, chiqindilarni to'plash tizimi va havoning ifloslanishi singari omillar ijtimoiy ahvolning yomonlashishiga va oilaviy daromadlarning katta qismining dori-darmon, tibbiy xizmatlar uchun sarflanishiga olib kelmoqda. Bu esa aholining umumiy farovonligini pasaytiradi.

Atmosfera havosi inson salomatligiga eng tez ta'sir qiluvchi omillardan biridir. Havodagi chang, gazlar (SO₂, NO₂, CO) va boshqa zararli moddalar nafas

olish tizimiga kirib, bronxlar va o'pkaga zarar yetkazadi. Natijada bronxit, bronxial astma, allergic rinit kabi kasalliklar rivojlanadi. Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalari va transport vositalari ko'p bo'lgan hududlarda ushbu kasalliklarning uchrashi yuqori ekanligi kuzatiladi. Uzoq muddat davomida iflos havodan nafas olish esa surunkali kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi.

Ichimlik suvining sifati aholi salomatligining muhim omillaridan biridir. Suv tarkibida zararli mikroorganizmlar, nitratlar yoki og'ir metallarning mavjudligi inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sifatsiz suv istemoli va ekologik holat yomon bo'lgan hududlarda dizenteriya, gepatit, ichak infeksiyalari, yurak qon tomir va parazitlar kasalliklar rivojlanadi. Qashqadaryo viloyatining ayrim qishloq hududlari ichimlik suvi sifati past bo'lib, bu kasalliklar ko'p uchraydi.

O'zbekistonda gepatit (jigar yallig'lanishi) kasalligi turli shakllarda, xususan gepatit A, B, C, D va E turlarida keng tarqalgan. Gepatit kasalligi O'zbekistonda salomatlikka jiddiy tahdid soladigan muammo bo'lib, uning tarqalishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Gepatit kasalligining tarqalish geografiyasi tahlil qilinganda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin [141].


- Nirusli gepatit kasalliklarining tarqalishi sanitariya, tibbiy xizmatlar sifati, ichimlik suvi ta'minoti va tibbiy amaliyotlardagi ehtiyotsizlikka bevosita bog'liqdir. Bu omillar, ayniqsa qishloq hududlarida, kasalliklarning yuqishi uchun qulay sharoit yaratadi. Yirik shaharlarda tibbiy xizmatlar yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, qishloq joylarida sanitariya-gigiyena sharoitlari past bo'lishi va tibbiy yordamning malakali bo'lmasligi virusli gepatit kasalliklarining keng tarqalishiga olib keladi. Bu kasalliklar bilan kasallanganlar soni bo'yicha (2022-yil) Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari yetakchi hisoblanadi (2.5-jadval).

- Gepatit A virusi asosan suv va oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyon kasallik bo'lib, uning tarqalishi bevosita sanitariya-gigiyenik sharoitlar va ichimlik suvi sifati bilan bog'liq. Ushbu kasallik, ayniqsa, markazlashgan toza suv ta'minoti

yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan, chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimi sust bo‘lgan hamda gigiyena qoidalariga rioya qilish darajasi past hududlarda keng tarqaladi. O‘zbekistonda gepatit A ko‘proq qishloq joylarda, ichimlik suvi sifatsiz yoki sanitariya sharoitlari talab darajasida bo‘lmagan hududlarda uchrab, bu kasallikning hududiy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari hamda Toshkent shahri kabi mintaqalarda kasallikning yuqori darajada qayd etilishi ushbu hududlarda suv va sanitariya bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Yakkabog‘ va G‘uzor tumanlarida 2024-yil holatiga ko‘ra virusli gepatit bilan kasallanishning yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Chiroqchi tumanida har 100 ming aholidan 440,1 kishi virusli gepatit bilan kasallangan bo‘lsa, Yakkabog‘ tumanida bu ko‘rsatkich 402,6 kishiga, G‘uzor tumanida 339,2 kishiga teng bo‘ldi (2.7-rasm). Bunday yuqori ko‘rsatkich qayd etilishi bir qancha omillar bilan bog‘liq. Ushbu omillarni quyidagicha izohlash mumkin:

Ichimlik suvining sifati va ta‘minoti: Tumanlarda ichimlik suvining markazlashtirilgan tizimlarga yetarli darajada ulanmaganligi va suv resurslarining past sifati gepatit A ning keng tarqalishiga olib kelgan. Ochiq suv manbalaridan foydalanish infeksiyaning oshishiga sabab bo‘lgan. *Gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi:* Aholining sanitariya holatining pastligi, maktablar va jamoat joylarida gigiyenik sharoitlarning talabga javob bermasligi gepatit A ning yuqori darajada tarqalishiga zamin yaratgan .



2.1-rasm. Qashqadaryo viloyati ma'muriy birliklar kesimida o'tkir virusli gepatit bilan kasallanish holati (har 100 ming aholiga nisbatan, 2024 yil)

Rasm Qashqadaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Profilaktika va emlash qamrovining pastligi: Tibbiy xizmatlar orqali gepatit B ga qarshi emlash qamrovining yetarli emasligi kasallik tarqalishini kuchaytirgan. Ayniqsa, qishloq joylarda aholining emlash dasturlariga jalb etilishi past bo'lgan. *Sterilizatsiya qoidalariga rioya qilinmasligi:* Davolash-profilaktika muassasalarida invaziv muolajalar va jarrohlik amaliyotlari paytida sterilizatsiya qoidalarining buzilishi gepatit B va C infeksiyalarining tarqalishiga sabab bo'ldi.

Aholi zichligi: Chiroqchi, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida aholining zich joylashgan hududlarida infeksiyaning yuqish ehtimolini oshiradi. Uyma-uy yashash tartibi, bolalar va yoshlarning ko'p qismi gigiyenik madaniyatga ega bo'lmagan oilalarda yashashi muhim omil bo'ldi. *Migratsiya va transport aloqalari:* Ishchi migratsiyasi, xususan, Rossiya yoki boshqa davlatlarga ketuvchi aholi o'rtasida gepatit B va C viruslarini olib kelish va tarqatish holatlari uchragan.

Ma'lumot yetishmovchiligi: Gepatit kasalligining oldini olish bo'yicha axborot va tushuntirish ishlarining yetarli darajada olib borilmagani, aholining kasallik xavfi haqida ma'lumotga ega emasligi infeksiyaning keng tarqalishiga olib kelgan. *Davolanish imkoniyatlari:* Aholining aksariyati kasallikning dastlabki bosqichida davolanish uchun murojaat qilmasligi, shu jumladan surunkali gepatit holatlarining ortishi bilan bog'liq.

Ekologik muammolar: Chiroqchi, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida atrof-muhitning ifloslanishi, suv resurslarining iflosligi va qishloq xo'jaligi faoliyatida ishlatiladigan kimyoviy moddalarning ko'pligi gepatit A ga sabab bo'luvchi holatlarni kuchaytirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Комилова Н., Мухаммедова Н., Мардонова Р. Навоий вилоятида аҳоли ўлимининг ҳудудий хусусиятлари // Ўзбекистон Евросиё маконида:

география, геоиктисодиёт, геоэкология. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 216-218.

2. Комилова Н.К., Солиев А.С. Тиббиёт географияси. – Тошкент, 2005. – 159 б.

3. Коровин Е.П. Растительность Средней Азии и Южного Казахстана. В 2-х т. Т. 1. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. – 355 с.

4. Комилова Н.Қ., Солиев А.С. Тиббиёт географияси. -Т.: Истиклол, 2005. -162 с.

5 .Комилова Н.Қ. Ўзбекистон тиббий географик шароитининг худудий таҳлили ва аҳоли саломатлиги муаммолари. География фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2012. – 46 б.

6. Хужамова S.B. Qashqadaryo viloyatida aholining yuqumli kasalliklar bilan kasallanish geografiyasi // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №12 (127). 2024. С. 956-963.

7. Khujamova S.B. Geography of the spread of virus diseases in Uzbekistan and nozogeographic environment ways to improve // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference. 2024. – P. 34-37. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14326687>